



INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI “YOMONLIK”NI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI

Yusupova Omina Muxammadzoi qizi

Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili o‘qituvchisi

yusupovaomina77@gmail.com, +998939894445

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz hamda o‘zbek ertaklarida mavjud bo‘lgan “yomonlik” ma’nosiga ega lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, ertaklardan olingan misollar bilan boyitilgan. Qolaversa, ertaklardagi asosiy axloqiy tushunchalar hamda ularning oppozitsiyalari batafsil yoritilib, ikki xalq ertaklaridagi yomonlik timsollarining o‘xshash hamda farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu tahlil natijalarida har bir xalqning madaniy qadriyatlar va mentaliteti ertaklarda o‘z ifodasini topishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Folklor, o‘zbek xalq ertaklari, ingliz xalq ertaklari, yomonlik, qiyosiy tahlil, leksemalar, lisoniy birliklar va semalar.

АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ «ЗЛО» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному исследованию языковых единиц, выражающих значение «зла», встречающихся в английских и узбекских народных сказках, и подкреплена примерами, взятыми из этих сказок. Кроме того, подробно освещаются основные моральные понятия в сказках и их оппозиции. Проводится сравнительный анализ сходств и различий символов зла в народных сказках этих двух культур. Результаты этого анализа показывают, что культурные ценности и менталитет каждого народа находят свое отражение в их народных сказках.

Ключевые слова: Фольклор, узбекские народные сказки, английские народные сказки, зло, сравнительный анализ, лексемы, языковые единицы и семы.

ANALYSIS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING “EVIL” IN ENGLISH AND UZBEK FOLK TALES

Annotation: This article is dedicated to the comparative study of linguistic units expressing the meaning of “evil” found in English and Uzbek folk tales, enriched with examples taken from the tales. Furthermore, the fundamental moral concepts within these tales and their

oppositions are elaborated in detail. The similarities and differences of the symbols of evil in the folk tales of these two cultures are comparatively analyzed. The results of this analysis demonstrate that the cultural values and mentality of each nation are reflected in their folk tales.

Key words: Folklore, Uzbek folk tales, English folk tales, evil, comparative analysis, lexemes, linguistic units, and semes.

KIRISH

Xalq ertaklari asrlar davomida shakllangan xalq og‘zaki ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lib, unda xalqning orzu-umidlari, yashash tarzi, madaniyati, urf-odat, an‘analari hamda hayotga munosabati o‘z aksini topadi. Folklorshunos olim O.Safarov ta’kidlaganidek, “har bir xalqning ertagi o‘sha xalq tarixini, ma’naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e’tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi”. [4] Shuningdek, ertaklarda yaxshilik va yomonlikning kurashi asosiy g‘oya sifatida aks etadi. Har bir xalq ertaklarida bu tushunchalar turli obraz hamda ramzlar orqali ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek ertaklarida ham shunday umumiylik mavjud. Lekin “yaxshilik/yomonlik”ni bildiruvchi timsollar, belgi nomlari, ularning ifodalanishi va ahamiyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada esa ingliz va o‘zbek ertaklarida “yomonlik”ni ifodalovchi belgilar, timsollar qanday aks etishi, ularning o‘xshash hamda farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turli tizimli tillarni tahlil qilishda ingliz va o‘zbek ertaklarida ham yaxshilik va yomonlik, donolik va nodonlik, egrilik va to‘g‘rilik, haqiqat va yolg‘on kabi ko‘plab qarama-qarshi tushunchalarni uchratamiz. Ulardan eng ko‘p qo‘laniluvchi “yaxshilik/yomonlik” oppozitsiyasi bo‘lib, o‘ziga xos mazmun va tuzilishga ega. O‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan bu kabi tushunchalar ingliz ertaklarida mavjud bulgan tushunchalar bilan ba’zida to‘liq, ba’zi bir o‘rinlarda qisman o‘xshash va mushtarak kelishi kuzatiladi. Bunday o‘xshashlik va moslik ularning nomlanishida ham, leksik birliklarida ham kuzatiladi. Tadqiqotimizning asosi bo‘lgan *yomon* leksik birligining tarkibiy qismlari quyidagicha:

Yomon leksemasining eng keng tarqalgan komponenti “hamma narsa yomon, axloqsiz (yaxshilikka qarama-qarshi)” bo‘lib, quyidagi komponentlardan foydalanish bilan reallashadi: 1) zarar; 2) muammo; 3) baxtsizlik; 4) hujum; 5) yoqimsizlik; 6) yomon tuyg‘u: g‘azab, bezovtalik; 7) gunoh; 8) qasos; 9) norozilik; 10) sharob; 11) ayyorlik. [2]

“Yomonlik - yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi illat. Yolg‘onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo‘ladi.”[8] N.Y.Mospanovanning fikricha “ertaklarda “yomonlik” semantik komponentli ko‘p sonli leksemalar ekspressivlikni oshiradi va so‘zlovchining o‘z hikoyasiga nisbatan hissiy, shaxsiy munosabatini bildiradi. Yovuzlik qanchalik dahshatli va kuchli bo‘lsa, odatda ertakda g‘alaba qozonadigan yaxshilik shunchalik qimmatlidir”. [3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turli tizimli tillarning ertaklarida qo‘llaniluvchi ba’zi timsollar borki, ular doimo yomonlik va yovuzlikdan darak berib turadi. Masala, o‘zbek ertaklaridagi zahar leksemasi *“tirik mavjudotni og‘ulab yemiruvchi yoki o‘ldiruvchi modda, og‘u”* ma’nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, *og‘u singari achchiq, kishi hayotini og‘ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa, holat* ma’nosida ham ishlatiladi.

“Jobir Odilning oldiga dasturxon yozibdi va dasturxonni noz-nematlar bilan to‘ldirib tashlabdi. Ziyofat orasida bir piyola zahar olib kelib Odilning oldiga q‘oyibdi” (“Ikki tabib” ertagidan)

Ertaklarda juda ko‘p o‘rinlarda qilich leksemasi uchraydi va asosan yovuzlik qilish uchun foydalaniladigan sovuq qurol hisoblanadi. Qilich bu *bir tig‘li, g‘ilof (qin) bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol* hamda *erkaklar ismi*. [5] Bu qurol asosan hozirgi kunda amaliyotlarda ishlatiladi, lekin tarixda janglarda qilichdan foydalanilgan. *Qilichdan o‘tkazmoq, ya’ni qilich solib o‘ldirmoq, qirmoq, qilichidan qon tomadigan, qilich ko‘tarmoq yoki qilich o‘ynatmoq* kabi jumlar ertaklarda ko‘p uchraydi. Aytish joizki, ramziy ma’noda esa u kuch, jasorat va adolatni ifodalaydi hamda qahramonlarning asosiy quroli sifatida ta’riflanadi. Qolaversa, *sword* ya’ni qilich, shamshir leksemasi ingliz ertaklarida uchrab, dushmanga hujum qilishda, janglarda yoki shahzodalar musobaqalashgan vaziyatlarda qo‘llaniladi. O‘zbek ertaklarida esa *qilichdan o‘tkazibdi, boshiga qilich solibdi, qilichini qinidan chiqaribdi, qilichini yalang‘ochlabdi* kabi jumlar mavjud.

“Oradan qirq kun ham o‘tibdi. Kulollar ko‘p boshlarini qotirib, qancha urinsalar ham piyolani tuzata olmabdilar. Shunda podsho darg‘azab bo‘lib, ularning hammasini qilichdan o‘tkazibdi” (“Jonon piyola” ertagidan)

“U, “Qon!” deb deb baqirib turgan jallodga duch kelib, to‘rttasini ham qilichdan o‘tkazibdi.” (“Bahrom va Sherzod” ertagidan)

Bundan tashqari, *xanjar* leksemasi ham qilich leksemasiga ma’nodash tarzda qo‘llanilib, ikki tomoni tig‘li qurolni anglatadi va ertaklarda xanjar bilan o‘ldirish kabi holatlar ham kuzatiladi.

Ingliz ertaklarida yovuzlik qilishda turli qurollardan foydalanganini guvohi bo‘lamiz. Masalan *“The Rose tree”*da (“Atirgul daraxti”) *“axe”* ya’ni boltadan fodalaniib, o‘gay ona qizaloqni o‘ldirsa, *“The Three Sillies”* (“Uch ahmoq”) ertagida esa *“mallet”* bolg‘acha o‘ldiruvchi yovuzlik qurol sifatida talqin etilgan.

“I’m doing now, and the mallet was to fall on his head and kill him, what a dreadful thing it would be!” And she put down the candle and the jug, and sat herself down and began a-crying.” (“The Three Sillies” (“Uch ahmoq”) ertagidan)

Shuningdek, *zindon* ham o‘zbek xalq ertaklarida yovuzlikdan dalolat beradi, chunki ko‘pgina ertaklarda jazo sifatida zindonga tashlab, azoblash holatlari kuzatiladi. Tarixdan ma’lumki, amir va xonlar zamonida yer ostiga qurilgan zax, qorong‘i qamoqxona *zindon* deb

nomlangan. Bu leksema ko‘chma ma’nosida *azob-uqubat makoni; azobxona, g‘urbatxonani* ifodalaydi va ertaklarda uchraydigan “yomonlik” timsollaridan biri sanaladi.

“Husnobod eri bilam bu yurtni ham idora qilib, zindonda begunoh yortganlarni ozod qilibdi. Ulardan bir qanchasini shaharlarga hokim qilib tayinlabdi.” (“Malikayi Husnobod” ertagidan)

Ingliz ertaklarida *death* ya’ni *o‘lim* doimo yozuzlikga ishora qiladi hamda *“the state of being dead; an occasion when someone dies; the time when something end or the fact that it ends”* [4] (o‘lik holati; kimdir vafot etgan holat; biror narsa tugashi yoki uning tugash vaqti) kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu leksema insoning jismoniy holatiga nisbatan salbiy semada qo‘llanib, yovuzlikning tarkibiy qismi sanaladi.

Ta’kidlash joizki, ingliz xalq ertaklarida *jodugarlar* (witches) “yomonlikning timsoli bo‘lib, sehr-jodu, la‘nat hamda yovuz niyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. *Devlar* (giants) esa kuch va shafqatsizlikni ifoda etuvchi obrazlar sanaladi. *Yovuz qirollar* (evil kings) hamda *o‘gay onalar* (stepmothers) kabi timsollar zulm, hasad, adolatsizlikdan darak beradi. *Yirtqich hayvonlar* (beasts) esa yovuzlik va xavf-xatarning ramzi sifatida tasvirlanadi.

O‘zbek xalq ertaklarida ham bu kabi “yomonlik” timsollari mavjud. Jumladan, *devlar* kuchli va shafqatsiz yovuz kuchlar timsoli bo‘lsa, *jodugarlar/kampirlar* sehr-jodu, yovuz niyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. *Yovuz podshohlar* doimo zulmkorlik, adolatsizlik hamda ochko‘zlikni ifodalaydi. Shu o‘rinda aytish joizki, ingliz ertaklarida *jodugarlar* obrazi o‘zbek ertaklariga nisbatan ko‘proq uchraydi. O‘zbek ertaklarida esa *devlar* obrazi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, o‘zbek xalq ertaklarida yovuz podshohlarning zulmi ko‘proq tasvirlanadi.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida “yomonlik”ni ifodalovchi timsollarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalq ertaklari o‘zining betakror xususiyatlari bilan ajralib turadi. Turli xalqlarning ertaklaridagi “yomonlik” ma’nosiga ega lisoniy birliklar, timsollar hamda belgi nomlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, ularning o‘xshash hamda farqli jihatlari qiyosiy tahlillarda yaqqol aks etadi. Xalq og‘zaki ijodining eng boy janri bo‘lgan ertaklar nafaqat badiiy meros, balki xalqning tarbiyaviy va axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi boy manba hisoblanadi. Ertaklarni o‘rganish va ularni qiyosiy tahlil qilish orqali biz xalq ruhiyati va madaniyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Kelajakda bu yo‘nalishda ko‘plab qiyosiy tadqiqotlar olib borish, xalq ertaklarining yangi qirralarini ochish ilmiy va tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. English Fairy Tales. Collected by Joseph Jacobs, the Pennsylvania State University. 2005. – 13 p.
2. Кириллина Надежда Викторовна. Особенности оппозиции добро - зло в языке лирики А.А. Ахматовой. Дисс. ... канд. филол. наук. 2011

3. Моспанова Наталья Юрьевна. Концептуальная оппозиция «добро/зло» в фольклорной языковой картине мира (на материале русских народных сказок). Дисс. ... канд. филол. наук. 2005.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010. – 204 b.
5. The Macmillan English Dictionary, Macmillan Publisher Limited. – Malaysia. 2007. – 379 p.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, IV jild. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. – Toshkent, 2023. – 129 b.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
8. O‘zbek xalq ertaklari. I jild. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijod uyi, – Toshkent, 2007. – 220 b.
9. O‘zbek xalq ertaklari. III jild. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijod uyi, 2014. – 384 b.
10. O‘zbek xalq ertaklari I jild. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijod uyi, – Toshkent, 2007. – 220 b.
11. Yusupova O. Ingliz va o‘zbek maishiy er-taklaridagi asosiy tushun-chalarni ifodalovchi leksema-larning semantik tahlili. FarDU. ILMIY XABARLARI. Ilmiy jurnal – №3, 2024. <http://journal.fdu.uz>. ISSN 2181-1571. – 568-572 b.
12. Dildora, G., & Omina, Y. (2023). JAHON TILSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING O‘RGANILISHI. Involta Scientific Journal, 2(5), 118-122.
13. Yusupova, O. (2023). JAHON VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING TURLICHA TASNIFLANISHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8). 270-276.